

XIV ASR IJODKORLARI VA ULAR SHE'RIYATINING TURKIY OLIMLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

H. Aslanova ¹, Dolunay Yusuf Balturk ²

Annotatsiya:

Maqolada temuriylar davri namoyandalari ijodining turk va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilishi haqida so'z yuritiladi. Ular ijodining o'ziga xosliklari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: unsur, devon, ijod, ruboiy, tuyuq, qit'a, sharq, g'arb.

doi: <https://doi.org/10.2024/whgse668>

Temuriylar davri turkiy adabiyot vakillari ijodining qirralarini o'rganish nafaqat o'zbek, balki xorij olimlarining ham diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunonchi, F.D.Artamoshina Lutfiy, Atoyi, Sakkokiylar ijodidagi arab, fors va turkiy tili unsur (element)larini qiyosiy o'rganib, ularni foiz hisobidagi jadvalda yoritib beradi:

Mualliflar	umumiy	hisobda	takror hisobga	olinmagan holatda
	Arab-fors unsurlari	Turkiy unsurlari	Arab-fors unsurlari	Turkiy unsurlari
Lutfiy	42 – 48	52 – 58	39 – 51	49 – 61
Atoyi	57	43	63 – 59	31 – 37
Sakkokiy	50 – 57	43 – 50	58	42

Mavlono Lutfiy ham shu davrning namoyandalardan bo'lib, o'z zamonining «malik ul-kalomi». Yaqin vaqtlargacha Lutfiyning tavallud topgan va vafot etgan joyi Hirotning Dehikanor mavzei deb ko'rsatib kelingan. Shayx Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug'bekka bag'ishlab yozilgan «Funun ul-balog'a» asari topilgach, undagi «ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy» jumlariga asoslanib, Lutfiyning ona vatani Toshkent bo'lgan, degan fikr ham ilgari surildi. Lutfiyning hayot yo'li singari, ijodiy taqdiri ham juda ibratli. Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida ma'lumot berilishicha, Lutfiy umrining oxirlarida «oftob» radifli bir she'r yozgan, o'sha zamonning ko'p shoirlari unga tatabbu' qilganlar, ammo ulardan hech biri Lutfiyning «panjasiga panja» ura olmaganlar. Alisher Navoiy so'zi bilan aytganda, u «forsiy va turkiyda naziri yo'q» shoir bo'lgan. Lutfiy garchi o'z ona tili - turkiy tilda yaratilgan she'rlari bilan mashhurlikka etishgan bo'lsa-da, forsiyda ham o'zining shoirlik iqtidorini namoyon qilgan. Shuning uchun ham, u nafaqat o'z zamondoshlari va ijod ahli orasida, balki davr hukmdorlari oldida ham yuqori mavqega ko'tarilgan ijodkor bo'lgan.

Haqiqatan ham Lutfiyning she'riyati – xilma-xil shakllardan tarkib topgan mazmundor, rangin she'riyat. Lutfiyshunos olim S.Erkinovning ta'biri bilan aytganda «Lutfiy o'z lirikasida o'zbek tili va xalq poeziyasidan juda mohirlik bilan foydalandi. Turli-tuman so'z o'yinlari, husni ta'lil, majoz kabi sharq klassik adabiyotiga xos poetik priyomlar, original o'xshatishlar, kuchli mubolag'alar, g'azal, ruboiy, tuyuqlar tarkibiga singib ketgan xalq maqollari, obrazli iboralar Lutfiy lirikasini yoqimli va jozibali qilib turadi».

¹ Aslanova Hafiza Abduraximovna, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

² Dolunay Yusuf Balturk, Trakya Universiteti, Ijtimoiy fanlar instituti, Xalqaro munosabatlar bo'limi, doktorantura dasturi (PhD)

Lutfiy g'azalnavis sifatida Sharq adabiyotida barqarorlashgan adabiy-estetik an'analar bilan xalq og'zaki ijodiyoti tajriba tamoyili va usullarini nihoyatda mohirlik bilan muvofiqlashtirgan. Shu boisdan ham uning g'azallarida milliy his-tuyg'ular nurlanib, insoniy dard, armon, qayg'u va shodlik tasviri takrorsiz bir ta'sirchanlik kasb etgan. Lutfiy nainki g'azallarida, ruboiy, tuyuq, qit'a, fardga o'xshash boshqa janrlardagi she'rlarida ham nafasat hissi shakllangan, did va saviyasi baland kishilarning - zukko va hayotsevar xalq vakillarining fikru tuyg'ularini tarannum etgan. Lutfiy ijodiyotida asosiy mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning hasbu holini tasvirlashdan iborat bo'lsa-da, shoir deyarli har bir she'rda mavzuga yangicha yondashib, betakror ohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o'xshamaydigan badiiy san'atlarni qo'llaydi. Lutfiy devonida tashbih, talmeh, tazod, iyhom, husni ta'lil, irsoli masal kabi badiiy san'at namunalari keng qo'llangan. U ruboiy, tuyuq, qit'alarini ham san'at namunasi maqomiga ko'tara olgan. Lutfiy she'riyatining ta'siri faqat O'rta Osiyo bilan chegaralanib qolmasdan, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga ham etib borgan. Atoqli turk olimi M.F.Ko'prulizodaning e'tirof etishicha, Lutfiyning she'rlari yolg'iz chig'atoy shoirlari orasida emas, balki «Xarobot» muallifi Ziyo Poshoga qadar bo'lgan usmonli turk shoirlari orasida ham zavq bilan o'qilgan.

XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan turkiy shoirlar adabiyot, san'at va madaniyatni boyitishga munosib hissa qo'shishgan. Alisher Navoiy ijodining takomillashuvi, yuksak cho'qqiga ko'tarilishida ularning barakali ta'siri bo'lgan. O'z zamonasida mashhur bo'lgan bu davr shoirlaridan Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Durbek, Atoyi va boshqalar qatori mavlono Gadoiyning ham turkigo'y xalqlar she'riyatiga, xususan, o'zbek g'azalchiligi taraqqiyotiga, badiiy so'z san'atiga qo'shgan munosib hissasi bor.

Gadoiyning yetishtirgan davr, ya'ni XV asrdagi Movarounnahr va Xurosondek ulkan mamlakatlardagi nihoyatda murakkab tarixiy sharoit, ijtimoiy tuzum, madaniy va adabiy hayot sharqshunos, adabiyotshunos olimlar asarlarida, ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Gadoiy ijodi ana shu muhit bilan chambarchas bog'liqdir. U o'z ijodi bilan XV asr o'zbek mumtoz she'riyati rivojiga katta hissa qo'shgan. Xususan, lirik janrlar taraqqiyoti, g'azallarining mavzu va mazmun rang-barangligi, vazn, qofiya va badiiyatning boshqa unsurlaridan foydalanish mahorati masalalarida o'z davri she'riyati uchun o'ziga xos maktab yaratgan ijodkorlardan biridir. Gadoiy she'rlari aruzning asosan xalq qo'shiqlariga yaqin ramal va hazaj bahrlarida yozilgan; tili xalqona sodda, vazni engil, sho'x va o'ynoqi. Fahriy Hirotiyning «Radoyif ul-ash'or» tazkirasiga kiritilgan Gadoiyning forsiy g'azali bizga qadar etib kelgan yagona namuna bo'lsa-da, shoirning bu tildagi ijodiy mahorati haqida muayyan tasavvur uyg'ota oladi. Bu esa o'zbek adabiyotida Xorazmiydan boshlangan zullisonaynlik an'anasining munosib davomchisi bo'lganligini asoslaydi.

Mavlono Gadoiy shaxsiyati va adabiy merosini o'rganish Hazrat Alisher Navoiydan boshlangan edi. Navoiyning shoir tarjimai holi («yoshi to'qsondin o'tubdur», «Bobur Mirzo zamonida she'ri shuhrat tutdi»), ijodiy uslubi («turkigo'ydur», «bir nav'i aytur»), mavqei («mashohirdindur») haqidagi qaydlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Gadoiy ijodining o'rganilish tarixida xorijiy olimlardan Fuod Ko'prulu, E.Bloshe, A.Bombachi, Ya.Ekman, o'zbek olimlaridan S.G'aniyeva, E.R.Rustamov, M.Rustamov kabilarning tadqiqotlari, ustoz olim E.Ahmadxo'jayevning bir necha yillar davomida olib borgan ilmiy tadqiqotlari, ayniqsa, 1978-yilda «Gadoiy» monografiyasi nashr ettirilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Olim yagona qo'lyozma asosida bo'lsa-da, Gadoiy she'riyatining matnini tiklash, takomillashtirish masalasida jiddiy yutuqlarga erishgan.

Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, shu jumladan, san'at va adabiyot yuksak darajada rivojlanganligining asosiy omillaridan biri hukmdor tabaqaning bu sohaga alohida e'tibor bilan qaraganligidir.

Turkiy-o'zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida badiiy ijod namunalari arab, fors-tojik va turkiy tillarda yaratildi. Boshqa tillarda ijod etish barobarida shu tillarda mavjud bo'lgan boy ijodiy tajribalar: lirik va epik janrlar, rang-barang she'riy vaznlar, obraz,

detal va badiiy tasvir vositalari adabiyotimizning tobora rivoj topishi, shakl va mazmun jihatdan takomillashuviga xizmat qildi.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida janriy rang-baranglik dastlab didaktik dostonlar tarkibidagi she'riy shakllar (masnaviy, to'rtlik, qasida) tarzida, so'ngra nomanavislik an'anasi ta'sirida g'azal, qit'a, soqiynoma, masnaviy, fard singari janrlar tobora mustaqillik kasb eta boshladi. Agar Atoyi devoni faqat g'azallardan iborat bo'lsa, Yusuf Amiriy devonida g'azal, tarje'band, tuyuq; Sakkokiyda g'azal va qasida; Gadoiyda g'azal, qasida, mustazod, qit'a; Lutfiyda g'azal, qit'a, qasida, tuyuq, fard; Hofiz Xorazmiyda qasida, g'azal, mustazod, muxammas, tarkibband, tarji'band, qit'a, marsiya, ruboiy namunalari uchratishimiz mumkin.

Sayfi Saroyining bizga qadar yetib kelgan lirik asarlari aruzning to'rtta bahri doirasida sakkiz xil vaznda yozilgan bo'lsa, Hofiz Xorazmiyga kelib to'qqiz bahrga tegishli bo'lgan 53 vazndagi lirik asarlar yaratildi. Gadoiy esa hazaj, ramal, rajaz, muzori, mujtass va xafif bahrlarining jami 12 xil vaznidan foydlangan.

Taniqli adabiyotshunos olim E.Rustamov «XV asrning I yarmi o'zbek she'riyati» monografiyasida davr adabiy muhiti kontekstida Gadoiy adabiy merosiga ham murojaat etgan. Mazkur monografiyada shoir shaxsiyati («Gadoiy taxallusi shoirning naqshbandiya tariqatiga aloqador ekanligini ko'rsatadi»), ijodiy uslubiga oid muhim qaydlar («Hofiz ijodi Gadoiy uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan», «Gadoiy she'riyati tahlili... shoir... xalq ijodining ixlosmandlaridan bo'lganligini ko'rsatadi»), keltirilgani holda «Gadoiy poetik merosini tadqiq etish adabiyotshunoslar uchun ham tilshunoslar uchun ham muhim ahamiyat kasb» etishi alohida ta'kidlanadi.

Yuqorida zikr etilgan tadqiqotlar ko'p jihatdan bir-biriga hamohang bo'lgani holda, ulardagi ma'lumotlar o'rtasida tafovutlar ham mavjud. Jumladan, Yanosh Ekman tomonidan AQSHdagi Indiana universitetida 1971-yilda chop ettirilgan Gadoiy devonining nashrida qasidalar 2 ta deb ko'rsatilgan («The Divan of Gadai comprises 229 gazals, 2 qasidas (№ 204, 229), 1 mustazad (№199) and 5 tuyugs», ya'ni «Gadoiy devoni 229 ta g'azal, 2 qasida (№ 204, 229), 1 ta mustazod (№199) va 5 ta tuyuqdan iborat). Qayd etish joizki, Gadoiy adabiy merosi mamlakatimizda ilk marotaba 1965-yilda S.G'anieva tomonidan «Shoir Gadoiy» nomi bilan nashr ettirilgan edi. Mazkur kitobda shoirning 47 g'azali va 1 ta mustazodi o'rin olgan. E.Ahmadxo'jayev 1973-yilda Gadoiy «Devon»ini qo'lyozma nusxa hamda Ya.Ekman nashri asosida qaytadan nashrga tayyorlab, 230 ta g'azal, 1 ta mutazod, 5 ta qit'adan tashkil topgan nisbatan mukammal nashrini amalga oshirdi.

XV asrga kelib, mumtoz adabiyotimiz tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan o'zbek she'riyati o'zining yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shu davrda shuhrati hammayoqni egallagan fors-tojik poeziyasi bilan bemalol musobaqalasha oladigan qudratli turkiy she'riyat yaratildi. Bu she'riyatning kamolotini Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy kabi o'nlab san'atkorlarning she'riyatidagi tasavvur etish qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Девони Гадо. (Нашрга тайёрловчи: Асланова Х) - Тошкент: «Vneshinvestprom», 2020.

[2]. Рустамов М. Гадоий девонининг луғати ва матни. ЎзФА Алишер Навоий номидаги Давлат музейи таҳрир бўлими. - Т., 2007. 189-б.

[3]. Рустамов. Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века, ИВЛ, М., 1963. - Стр.145.

[4]. Фахрий Ҳиротий «Латойифнома». Инвентарь-7669, 83-б.

[5]. Эркинов С. Лутфий. - Тошкент: Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1958. -Б. 8-9.